



# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

## RESPUBLIKA MUTASADDILARI MUROJAATCHILARNI TINGLADI

Xalq bilan muloqot qilish va "mahallabay" ishlash tizimini yanada takomillashtirish, joylarda uchrayotgan muammolarga tezkor yechim topish maqsadida Respublika ishchi guruhining ommaviy qabuli viloyatimizning Ishtixon tumanida o'tkazildi. Unda Oliy sud raisi, Bosh prokuror, Ichki ishlar vaziri hamda soliq qo'mitasi, Prezident Xalq qabulxonalarini rahbarlari Samarqand, Jizzax, Sirdaryo va Navoiy viloyatlaridan kelgan murojaatchilarni qabul qildi.



### SIZNI ESHITISHGA KELDIK

Ochig'i, ayrim vaqtlarda joylardagi qabul nima uchun kerak, hammasi ko'zbo'yamachilik, degan gaplarni eshitib qolamiz. Yashirib nima qildik, aksariyatimiz bu fikrga qo'shilgan holatlar ham oz emas. Lekin sayyor qabulni kuzatgan kishi aslida hammasi boshqacha ekanligiga to'liq ishonch hosil qiladi.

- Navoiydan keldim, - dedi 60 yoshlar atrofidagi onaxon. - Turmush o'rtog'imni nohaq ishdan bo'shatishdi.

Ayolning gaplarini tinglarkansiz, beixtiyor nega holat bo'yicha hududdagi sudlarga murojaat qilmagan, degan o'y o'tadi.

- Ish qaysi bosqichlarda ko'rilgan?, - degan savol bilan yordamchilariga yuzlandi Oliy sud raisi Baxtiyor Islomov.

- Hammasi ko'rgan, - dedi opa ham xuddi shuni kutgandek. - Lekin ular chiqargan hukmlardan mutlaqo noroziman. Bir necha marta qa-bulingizga kirmoqchi bo'ldim, ammo hech ilojini qilolmadim.

- Shuning uchun bugun Sizni tinglashga keldik, - dedi B. Islomov.

Opa biroz yengil tin oldi. Aslida shu gapning o'zi unga

- Siz kirmaysiz, demoqchi emasman, - dedi mas'ul shaxslardan biri. - Faqat murojaatingizni tinglab ko'rsak, balki aynan rahbar nazorati shart emasdir. Shu ma'noda nima maqsadda kelganingizni so'rayapman.

Muddaosini tinglashga ulgurmadik, navbati kelib, u ichkariga kirib ketdi. Bir muddat o'tgach, prokuratura xodimlaridan biri bilan yetaklashib chiqib keldi.

- Bor umidim sizlardan, yordam qilasiz, ishonchim, - dedi u.

Ichkariga kirganimizda boshqa bir fuqaro Nig'matilla Yo'ldoshevga minnatdorlik bildirayotgan ekan. Gap nimaligini tushunmasdan, unga yuzlandik.

- O'quv markazi va tikuvchilik sexi ochib, 40 nafarga yaqin nogironligi bor fuqarolarni ish bilan ta'minladik, - deydi Samarqand shahrida yashovchi Shavkatjon Bozrov. - Oradan ko'p o'tmay, faoliyatimizga to'sqinliklar boshlandi. Muammoga batafsil to'xtalmayman, lekin tadbirkor sifatida prokuratura bizning haqiqiy ko'makchimiz bo'lganini alohida ta'kidlashim mumkin. Ularning yordami bilan qisqa kunlarda faoliyatimizni

## Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan 23-25-may kunlari yurtimizga davlat tashrifini amalga oshirgan Singapur Prezidenti Halima Yaqub tashrif dasturiga ko'ra, 25-may kuni Samarqandda bo'ldi.

"Afrosiyob" poyezdida O'zbekiston Bosh vaziri o'rinbosari Z. Mahkamova hamrohligida qadimiy kentga kelgan oliy martabali mehmonni viloyat hokimi E. Turdimov kutib oldi.

Singapur Prezidenti dastlab Imom Buxoriy majmuasini ziyorat qildi. Buyuk muhaddis haqiga Qur'on tilovat qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi M. Komilov yuksak martabali mehmonga davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yangidan bunyod etilayotgan mazkur majmuadagi qurilish-bunyodkorlik ishlari, ziyoratgohning avvalgi holati haqida ma'lumot berdi. Ziyoratchilar uchun majmua va uning atrofida yaratilayotgan imkoniyat va qulayliklar ziyorat turizmini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etildi.

Halima Yaqub xonim Islom olamida muhadislar sultoni deb e'tirof etiladigan Imom Buxoriy mangu orom topgan maskani obod qilish bilan bog'liq ishlarga yuksak baho berdi.

Singapur Prezidenti Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va bu yerdagi muzey bilan ham tanishdi. Hadis maktabida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar hamda tinglovchilar bilan suhbatlashdi. Maktabda hadis ilmini o'rganayotgan yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar e'tirof etildi.

Singapur yetakchisi buyuk jahongir Amir Temur maqbarasi va dunyoga mashhur Registon majmuasida bo'ldi.

Oliy martabali mehmonga xalqimizning bunyodkorlik salohiyati, jumladan, mazkur obidalarining yaratilish tarixi va ularni asrab-



## SINGAPUR PREZIDENTI SAMARQANDNI ZIYORAT QILDI

avaylash borasida davlatimiz tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot berildi.

Halima Yaqub xonim shu yerda mam-lakatimizning yetakchi ommaviy axborot vositalari xodimlariga intervyu berdi.

- Avvalo taklif uchun Prezident Shavkat Mirziyoyevga minnatdorlik bildiraman, - dedi Singapur Respublikasi Prezidenti Halima Yaqub. - Bu tashriflar ikki tomonlama munosabatlarda yangi davrni boshlashi, shubhasiz.

Samarqandga safarimiz ham taassurotlarga boy bo'lmoqda. Ayniqsa, Islom olamining qutlug' maskanlaridan biri bo'lgan Imom Buxoriy majmuasi ziyoratidan juda xursand bo'ldik. Bu ulug' muhadisning ilmiy merosi butun musulmon dunyosining boyligi.

Halima Yaqub xonim Samarqand xalqaro turizm markazi va bu yerdagi "Boqiy shahar" majmuasini borib ko'rdi, qadimiy Siyob dehqon bozorida bo'ldi.

G'.HASANOV.

## Samarqandda 112 ta saylov uchastkasi tuzildi

### Muddatdan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi 7-Samarqand okrug saylov komissiyasining 24-may kuni o'tkazilgan navbatdagi majlisida okrug hududida saylov uchastkalari tuzish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

Saylov kodeksining 10-mod-dasiga ko'ra, saylov uchastkalari saylovchilarga mumkin qadar ko'proq qulaylik yaratish maqsadida tumanlarning, shaharlarning, shaharlardagi tumanlarning chegaralari inobatga olingan holda tuziladi.

Shuningdek, harbiy qismlarda, sanatoriylarda, dam olish uylarida, kasalxonalarda va boshqa stantsionar davolash muassasalarida, o'lis va borish qiyin bo'lgan hududlardagi fuqarolar turgan joylarda, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida ham saylov

uchastkalari tuziladi.

- Majlisimizda saylov uchastkalarining tartib raqamlari belgilangan holda okrug bo'yicha 112 ta saylov uchastkasi tuzish to'g'risida qaror qabul qildik, - deydi 7-Samarqand okrug saylov komissiyasi raisi o'rinbosari D. Yakubjanova.

- Saylov uchastkalarining 894 tasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida, 58 tasi kollej, litsey va texnikumlarda, 37 tasi mahalla fuqarolar yig'inlarida, 53 tasi tibbiyot, sanatoriy va dam olish muassasalarida,

16 tasi oliy o'quv yurtlari binolarida, 12 tasi harbiy qism va ozodlikdan mahrum etish muassasalarida faoliyat olib boradi.

Uchastkalar ro'yxati tuman, shahar gazetalar va boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi belgilandi.

Majlisdan so'ng o'tkazilgan brifingda okrug komissiyasi raisi X. Muhammadiyev komissiya tomonidan shu paytgacha amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berdi.

**Okrug matbuot markazi.**



dalda bo'lgandi. Oliy sud raisi yordamchilariga qaysi sudlarda murojaat bo'yicha ish ko'rilgan bo'lsa, chaqirib olishni, o'rganish natijalari bo'yicha murojaatchi va o'ziga axborot berishni topshirdi.

Shu o'rinda bir gap. Oliy sud raisi qabuliga kelganlar orasida adolat qiling, deb hayqirib yurganlar ham uchrad. Ularning vajlarini tinglagan B. Islomov shu yerning o'zida bu ishni qilishning iloji yo'qligini, chunki sud jarayoni ham ma'lum qonun bilan tartibga solinishini sodda va lo'nda qilib tushuntirib berdi.

### BOSH PROKURORGA KIRAMAN

Qabul davomida shu gap diqqatimizni tortdi. Gap nimaligini bilish maqsadida ularga yaqinroq bordik.

qayta yo'lga qo'yib, kelgusida yanada kengaytirishni o'ylab turibman.

Ommaviy qabul davomida Ichki ishlar vazirligi va Soliq qo'mitasi mutasaddilariga ham ko'plab murojaatlar bo'ldi. Ularning ba'zilar ijobiy hal etilgan bo'lsa, o'rganish talab etiladiganlari nazoratga olindi. Shuningdek, ayrim murojaatlar bo'yicha tegishli huquqiy tushuntirishlar berildi.

Shu kuni viloyat hokimi qayd etilgan idoralarga tegishli bo'lmagan murojaatlar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qildi. Ularni qiynab kelayotgan muammo va masalalarini eshitib, har bir murojaatni qonun doirasida hal etish bo'yicha mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

**Y. GADOYEV.**

## KONSTITUTSIYAVIY SHIKOYAT INSTITUTI

qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi

### Odatda, ayrim kishilarda yuqori instansiyalarga murojaat qilganlarga nisbatan bepisandlik munosabati kuzatiladi. Nima emish, masala bari-bir aniq ijrochilar yoki muayyan organ tomonidan hal etiladi-ku!

Vaholanki, bunday emas. Basharti, shunday bo'lganida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga "fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, sudda ko'rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi shikoyat bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishga haqli", degan norma kiritilmagan bo'lardi.

Ta'kidlash lozimki, shu paytgacha qayd qilingan sudga faqatgina qonun tashabbuskorligi huquqiga ega subyektlarining murojaat qilish huquqiga ega edi. Shubhasiz, Bosh qomusimizga kiritilgan yangi norma mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Galdagi masala esa mazkur institutni amalga qo'llash, bu boradagi huquqiy mexanizmni tartibga solishdan iborat.

### BU QANDAY AMALGA OSHIRILADI?

Joriy yil 25-26-may kunlari Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo mamlakatlarida konstitutsiyaviy shikoyat instituti modellari rivojlanish tendensiyalari" mavzuida tashkil etilgan xalqaro konferensiya konstitutsion nor-

maning mezoni va maqbulligini mustahkamlashda muhim omil bo'lishi shubhasiz.

Zotan, uni tashkil etishdan maqsad yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami demokratik, shu jumladan, konstitutsiyaviy islohotlar haqida xalqaro hamjamiyatga to'liq va xolis ma'lumot yetkazishdan iborat.

Shuningdek, Bosh qomusimizda ilk bor belgilangan konstitutsiyaviy shikoyat institutini rivojlantirishda xalqaro tajribani o'rganish, xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy sudlarining amaliyoti bilan tanishish hamda Venetsiya komissiyasi va unga a'zo mamlakatlar konstitutsiyaviy nazorat organlari bilan hamkorlikni mustahkamlash ham ko'zda tutilgan.

Xalqaro konferensiyani O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud raisi M. Abdusalomov, Yevropa Kengashining Huquq orqali demokratiya uchun Yevropa Komissiyasi (Venetsiya komissiyasi) prezidenti Kler Bazi-Malori, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi Spikeri birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi direktori A. Saidov, Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi elchisining hamkorlik bo'yicha boshqarma boshlig'i Vim Riyepma kirish so'zi bilan ochdi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

### 25-may kuni viloyatdagi barcha maktablarda "Ilmni qadrlang, ilmga intil-ing!" shiori ostida "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlari bo'lib o'tdi.

## Maktablarda "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlari bo'lib o'tdi

Tadbirlarda maktab hayotida faol ishtirok etayotgan, shuningdek, odob-axloqi, intiluvchanligi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan o'quvchilarning ota-onalariga tashakkurnomalar berildi.

O'quv yili davomida namunal xulq va a'lo baholarga o'qib, eng yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishgan iqtidorli bitiruvchilar taqdirlandi.

2022-2023-o'quv yilida viloyatdagi umumta'lim maktablarini 111462 nafar o'quvchi tugatmoqda. Shundan 65842 nafari 9-sinfni, 45620 nafari 11-sinfni tamomlayapti.

Joriy yilda viloyat maktablaridagi 9-sinf bitiruvchilarining 3942 nafari a'lo darajadagi tayanch o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnomaga, 11-sinf o'quvchilarining 198 nafari kumush, 1661 nafari oltin medalga da'vogarlik qilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 293 nafar o'quvchisi muddatidan oldin xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirib, talaba bo'ldi.

Hududlar kesimida eng ko'p talaba bo'lganlar Samarqand shahri maktablari bitiruvchilari bo'lib, muddatidan oldin 81 nafar o'quvchi talaba bo'lgan. Shuningdek, Past Darg'om tumanidan 39 nafar, Jomboydan 30 nafar maktab bitiruvchisi xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdi.

# KONSTITUTSIYAVIY SHIKOYAT INSTITUTI

qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

## BUTUNLAY YANGILIK EMAS

Konferensiya ishtirokchilariga ko'ra, konstitutsiyaviy shikoyat mamlakatimizda shu paytgacha ham amalda bo'lgan va turli rakurslarda tadqiq qilingan. Masalan, o'tgan yil 31-may kuni Konstitutsiyaviy sud qonundagi normani Konstitutsiyaga zid deb topgan. Jarayon qanday kechgan?



Fuqaro M.Hasanovning shikoyati asosida 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qonunning 55-moddasi 12-bandidagi Fuqarolik kodeksining 83-, 166-, 198-, 199- va 206-moddalariga tegishli qismi hamda Fuqarolik kodeksi 197-moddasining mulk huquqi "... mulk huquqini bekor qiluvchi qonunchilikka asosan bekor bo'ladi", degan qismi Konstitutsiyaga muvofiq emas deb topildi.

To'g'ri, bu biror qonunni Bosh qomusga zid deb topish bo'yicha O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudining ehtimolki, bir necha yillar ichidagi ilk qarori bo'ldi.

Umuman, 1995-2001-yillar davomida Konstitutsiyaviy sud fuqarolardan 2000 dan ko'proq xat va iltimosnomalarni qabul qilgan. Murojaatlar, asosan, ijro hokimiyati



Muzeyshunoslik va arxeologiya tadqiqotlari:

## Dolzarb muammolar va zamonaviy yechimlar

**Samarqand shahridagi "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universitetida shu mavzuda xalqaro forum bo'lib o'tdi.**

Forumning birinchi ish kunida Madaniy meros agentligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi hamda xorijiy hamkorlar ishtirokida "Muzeylar - madaniy merosning muhim manbai: an'analar va yangilanishlar" mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Unda Madaniy meros agentligi, Samarqand arxeologiya instituti, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi, oliy o'quv yurtlari, davlat muzeylari xodimlari va ilmiy jamoatchilik vakillari, Qozog'iston, Rossiya, Fransiya, Italiya kabi davlatlardan olimlar ishtirok etdi va sohaga oid yangiliklar haqida ma'ruzalar qildi.

Konferensiyada arxeologik meros obyektlarini konservatsiya qilish va muzeylashtirishda ularning ahamiyatini aniqlash va baholash kabi masalalar muhokama qilindi, - deydi Samarqand davlat muzeyi-qo'riqxonasi rahbari Xo'jaqul Muhammadiev. - Bundan tashqari, arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirishda mavjud turli yondashuvlar va mezonlar, ya'ni yodgorlikning tarixiy ahamiyati, saqlanish darajasi va badiiy qiymati kabi sohadagi muhim jihatlarga e'tibor qaratildi. Tadqiqotlar natijasida arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish, konservatsiya va restavratsiya qilish, saqlab qolish va hujjatlashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar, ularni amaliyotga joriy etish usullarini yo'lga qo'yish takliflari kiritildi.

Forumning ikkinchi kunida O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida "Samarqand muzeyi durdonalari" turkumidan "Jannatmakon yurtga oshufta ranglar" nomli ko'rgazma tashkil etildi. Mazkur ko'rgazmada mashhur rassom Lev Burening Samarqand davlat muzeyi-qo'riqxonasi tasviriy san'at fondida saqlanayotgan ellikka yaqin rangtasvir asarlari, jumladan, ijodkorning tarixiy obidalariga bag'ishlangan "Shohi zinda", "Eski Samarqand" kabi asarlari namoyish etildi. Shuningdek, ko'rgazmada "Buyuk ipak yo'li tadqiqotlari" ko'p jildli katalogi taqdimoti o'tkazildi.

S. MARDIYEV.

qarorlari hamda hujjatlarining konstitutsiyaga muvofiqligini belgilash bilan bog'liq bo'lgan.

Aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudida konstitutsiyaviy shikoyat bilan murojaat etish tartib-taomili mavjud bo'lgan. Biroq uni ko'rib chiqish tartib-taomili juda murakkab bo'lib, bu esa protsesning cho'zilib ketishiga olib kelgan.

Bu borada 2021-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunda bir qator konseptual yangiliklar o'z aksini topgan.

Konstitutsiyaviy shikoyatning boshqa davlat organlari va umumiydixsiya sudlariga berilgan shikoyatlardan farqli xususiyatlari shundaki, bunday shikoyat kim tomonidan berilganidan qat'i nazar, uni ko'rib chiqish natijasida chiqarilgan sud qarori barcha fuqarolarga, tegishli davlat organlari va boshqalarga ham taalluqli bo'lishi mumkin. Shu jihatdan, mazkur institut bir vaqtning o'zida jamiyatda inson huquq va erkinliklarni kafolatlash va qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

## AMALIYOTDA JARAYON KIMDA QANDAY?

Rim huquqida Actio popularis sifatida shaxsning jamiyat manfaatlarini uchun harakatlari tushunilgan. Har bir shaxs normativ-huquqiy hujjat e'lon qilingandan so'ng konstitutsiyaviy shikoyat bilan murojaat qilish huquqiga ega, bunda asosiy huquq va erkinliklari buzilganligi fakti asosiy mezon emas.

Mazkur konstitutsiyaviy shikoyat Lixtenshteyn, Malta, Peru, Chili, Vengriya va Gruziyada qonun ustuvorligini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Xorijiy amaliyotda normativ konstitutsiyaviy shikoyat turi ham qo'llaniladi. Bu turdagi individual konstitutsiyaviy shikoyatda har bir shaxs o'zining subyektiv huquqlari normativ hujjat asosida qabul qilingan individual hujjat oqibatida buzilishi ustidan shikoyat berishi mumkin. Normativ shikoyatlar Armaniston, Belgiya, Polsha, Qirg'iziston, Latviya, Monako va boshqalarda mavjud.

Umuman, Germaniyada so'nggi yillarda har bir senatga 2 mingdan 2,5 minggacha shikoyatlar taqdim etilgan. Ozarbayjon, Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalari qonunchiligida konstitutsiyaviy shikoyat instituti joriy etilgan.

Ozarbayjonda har bir shaxs qonunda belgilangan tartibda huquq va erkinliklarini buzuvchi qonunchilik va ijro hokimiyati organlarining normativ hujjatlarini, sud va munitsipalitetlarning hujjatlarini yuqori yuridik kuchga ega qonun hujjatlariga muvofiqlik masalasi yuzasidan Konstitutsiyaviy sudga shikoyat qilishlari mumkin. Qonunchilikka muvofiq, shikoyat predmeti barcha normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, sud hujjatlarini hisoblanadi.

Qirg'iziston Respublikasida ham to'liq konstitutsiyaviy shikoyat instituti joriy etilgan. Ushbu davlatda konstitutsiyaviy shikoyatning Actio popularis modeli joriy etilgan bo'lib, har bir shaxs agar ularning konstitutsiya bilan e'tirof etilgan huquq va erkinliklari qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjat bilan buzilgan, deb hisoblasa, nizo-lashishga haqlidir.

Bir so'z bilan aytganda, rivojlangan demokratik davlatlarda Konstitutsiyaviy sudlar tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

## BIZDA-CHI?

O'zbekistonda qonun ustuvorligi sohasidagi islohotlarni Konstitutsiyaviy sudning faol ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Biroq ta'kidlanganidek, avvallari konstitutsiyaviy shikoyat tushunchasi qonunda foydalanilmagan. Faqatgina 2020-yildagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmonida konstitutsiyaviy shikoyat atamasidan foydalanilgan.

2021-yil 28-apreldan kuzgacha kirgan yangi tahrirdagi "O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonun bilan kiritilgan o'zgartishlar tom ma'noda konstitutsiyaviy sudning ham davlat organi sifatida, ham sud hokimiyati organi sifatida "jonlanishiga" xizmat qiladi.

Qonunda "fuqarolar va yuridik shaxslarga muayyan ishda qo'llangan qonun bilan ularning konstitutsiyaviy huquqlari buzilganligi yuzasidan shikoyat" jumlasiga qo'llanilgan.

Ta'kidlanganidek, muayyan ishda qo'llanilgan qonun bilan ularning konstitutsiyaviy huquqlari buzilganligi yuzasidan fuqarolar murojaat qilganda, Konstitutsiyaviy sud masalaning ikki jihatini o'rganishga e'tibor qaratadi. Birinchidan, fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlari qonun bilan buzilganligi holatini aniqlaydi.

Ikkinchidan, mazkur qonun yoki uning bir qismini Konstitutsiya prinsiplari va normalariga muvofiqlik nuqtai nazaridan tekshiradi.

O'zbekiston Respublikasi

Ko'rgazma va yarmarkalardagi namunalar namoyishi orqali keng ommaga tovarlar va xizmatlar haqida batafsil va foydali ma'lumotlar yetkazish uzoq tarixga ega. Ko'rgazmalarni tashkil etish dastlab Fransiya muzeylarida XVIII asrda boshlangan. Birinchi xalqaro sanoat ko'rgazmasi Londonda 1851-yilda bo'lib o'tgan va o'sha paytda xalqaro ko'rgazmalar olamshumul voqea bo'lib, ularni tashkil etish jarayonida ko'pincha shaharlarda katta qayta qurish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan. Misol uchun, Eyfel minorasi 1889-yildagi xalqaro ko'rgazma uchun maxsus qurilgan va u hozirgacha butun dunyodan sayyohlarni jalb etib kelmoqda. Oxirgi xalqaro ko'rgazmalardan biri "Expo Dubai - 2020" uchun Dubai va Abu-Dabi shaharlari orasida 438 gektar maydonda yangi shaharcha barpo etildi.

O'zbekistonda bozor munosabatlari rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari o'sishini ta'minlash, mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarini o'rnatish va rivojlantirish maqsadida 1992-yilda milliy ko'rgazma majmuasi qaytadan qurilgan. Umumiy maydoni 18 ming kvadrat metr bo'lgan hududda 5 ta pavilon ishga tushirilib, ko'rgazmalarni xalqaro darajada tashkil etishga sharoit yaratilgan.

"O'zko'rgazmasavdo" milliy ko'rgazmalar markazi tomonidan 30 yil mobaynida 1500 ta ko'rgazma o'tkazilib, ulardan 1200 tasi xalqaro va 300 tasi milliy ekspozitsiyalarni qamrab olgan. Bu tashkilot tomonidan xorijda 100 dan ortiq ko'rgazma tashkil etilgan.

## FARQLI JIHATLARIMIZ BOR

Xalqaro konferensiyada qayd qilinganidek, fuqarolarning Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqlari bo'yicha cheklovlarining yo'qligi muayyan mezonlar va tegishli "filtr tizim"ni ishlab chiqish zarurati keltirib chiqardi.

Ayrim davlatlarda konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi asossiz murojaat yo'llash bilan suiiste'mol qilish fuqaroga jarima solishga olib keladi. Masalan, Ispaniya



Konstitutsiyasining 119-moddasiga muvofiq, bunday hollarda Konstitutsiyaviy sud huquqbuzarga 600 dan 3000 yevrogacha miqdorda jarima qo'llashi mumkin.

Germaniyada shu kabi holatda murojaatchi shaxs 2600 yevrogacha miqdorda jarimaga tortilishi ehtimoli bor.

O'zbekistonda esa Konstitutsiyaviy shikoyat yo'llashda davlat boji to'lanmasligi bilan bir qatorda, bu huquqni suiiste'mol qilganlik uchun javobgarlik ham ko'zda tutilmagan.

Xalqaro konferensiyada o'ndan ortiq ma'rufa tinglanib, muhokamalar o'tkazildi. Akmal Saidov Markaziy Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari assotsiatsiyasini tuzishni taklif qildi. O'zaro tajriba almashish, hamkorlikda konstitutsiyaviy shikoyat institutini mintaqada rivojlantirishga qaratilgan bu tashabbus qo'llab-quvvatlandi.

Bundan tashqari, konstitutsiyaviy shikoyat institutining ta'laqonli hamda samarali ishlashi uchun O'zbekistonda uni nazariy jihatdan to'liq tadqiq etish zarurligi bildirildi.

Y.MARQAYEV.



# SANOAT

## YARMARKALARINI O'TKAZISH NIMA UCHUN ZARUR?



Ko'rgazmalar majmuasidagi tadbirlar jahonda bo'ladigan ko'rgazmalar jadvallari bilan muvofiqlashtirilib, mahalliy va xorijiy ishtirokchilarga qulay paytlarda yil boshlanishidan oldin e'lon qilib kelinmoqda. Har yili taxminan bir paytlarda bo'lishi ishtirokchilar uchun qulaylik yaratmoqda.

Sanoat va xizmat ko'rsatish sohasida ixtisoslashgan xalqaro ko'rgazmalar bilan birga 2023-yildan xalqaro sanoat yarmarkalari va kooperatsiya birjasi tashkil etilib, unda mamlakatimizning barcha hududlaridan mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlari namoyishini tashkil etib, o'zaro manfaatli shartnomalar imzolab kelishgan.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-maydagi "2023-yilda hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkalarini tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan mamlakatimizning barcha hududlarida bosqichma-bosqich hudud ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda sanoat yarmarkalari va 12-15-dekabr kunlari respublika sanoat yarmarkasi tashkil etish belgilandi. Ushbu qaror bilan viloyat hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasini o'tkazish joriy yilning 30-31-may kunlariga belgilangan bo'lib, "SOF EXPO SAMARKAND" ko'rgazmalar markazida bo'ladigan tadbir turizm, gastronomik turizm, oziq-ovqat sanoati, mebelsozlik va elektrotexnika sanoati hamda gilam mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi mahsulotlari namoyishiga ixtisoslashgan. Ko'rgazmada o'zaro manfaatli shartnomalar tuzilishi va kelishuvlarga erishilishi rejalashtirilgan.

Sanoat yarmarkalari o'tkazilishining ishlab chiqaruvchiga ham, xaridorga ham va qiziquvchiga ham o'rganish, tajriba orttirish uchun bir qator afzalliklari bor. Jumladan, sanoat yarmarkalari o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi va albatta, jarayonning har bir ishtirokchisi uchun foydali jihatlarga ega. Ya'ni mahsulotlari bilan ishtirok etadigan korxonalar uchun mahsulot namunalari, ular haqidagi axborotlar va taqdimotlar orqali reklama qilish, mahsulotlarni bozorga tanitish mumkin.

O'z mahsulotiga bo'lgan talabni va unga bozor ishtirokchilarining munosabatini o'rganish, so'rovnomalar tashkil etish imkoniyati mavjud.

Mahsulot sotish bo'yicha muzokaralar o'tkazish, shartnomalar tuzish, xaridorlar doirasini kengaytirish imkoniyati yaratiladi.

Ko'rgazma ekspozitsiyalari bilan tanishish uchun keladiganlarga tadbirkorlar o'z mahsulotlari bilan solishtir-ma tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish g'oyalarini oladi.

Yoshlar tadbirkorligi uchun imkoniyatlarni ko'radi, tadbirkorlik g'oyalarini yaratadi, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari haqida bilimlarga ega bo'ladi.

Ko'rgazma ekspozitsiyalari bilan tanishish uchun kelgan tadbirkorlarga sanoat loyihalarini amalga oshirishga yo'l-yo'riq ko'rsatiladi.

Oliy va kasb ta'limi muassasalari ko'rgazmada-gi ishtirokchi korxonalar bilan kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha hamkorlik imkoniyatlarini muhokama qilish, memorandumlar tuzish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Har bir ishlab chiqaruvchi bilan yuzma-yuz ko'rishib, muzokaralar o'tkazish imkoniyati yaratiladi.

Oddiy qilib aytganda, ko'rgazmalar va sanoat yarmarkalari tadbirkorlikni rivojlantirishga, tadbirkorlar o'rtasida o'zaro manfaatli shartnomalar tuzish va kelishuvlarga erishishga sharoit yaratadi.

**Nozir IBRAGIMOV,**  
viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha yordamchisi, iqtisod fanlari doktori.

## “Samarqand konserva” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi 2023-yil 21-iyun kuni soat 10:00 da Samarqand shahri, Spitamen shohko'chasi, 15-uyda joylashgan “Samarqand konserva” aksiyadorlik jamiyati ma'muriy binosida o'tkazilishi belgilangan

### Umumiy yig'ilish kun tartibi:

1. Jamiyat kuzatuv kengashining 2022-moliyaviy yil yakunlari va jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisoboti.
2. Jamiyat bosh direktorining 2022-yil moliya-xo'jalik faoliyati yakunlari va jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisoboti.
3. Jamiyatning 2022-yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti, buxgalteriya balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti hamda foyda va zararlarini tasdiqlash.
4. Jamiyatning 2022-yil moliya-xo'jalik faoliyatini milliy va xalqaro tashqi auditorlik tekshiruvidan o'tkazish natijalari yuzasidan auditorlik tashkilotining xulosalarini tasdiqlash.
5. Jamiyatning 2022-yil moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan taftish komissiyasining hisoboti va xulosasini tasdiqlash.
6. 2022-yil yakuni bo'yicha olingan sof foydani taqsimlash, aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibini tasdiqlash.
7. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarini saylash.

8. Jamiyat taftish komissiyasi tarkibini saylash.
  9. Jamiyat ijroiya organini saylash.
  10. Jamiyatning 2023-yilgi moliya-xo'jalik faoliyatini milliy va xalqaro tashqi auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash va ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan haq miqdorini belgilash.
- Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxatini tuzish uchun 2023-yil 15-iyun holatiga va umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun 2023-yil 22-may holatiga aksiyadorlar reestri shakllantiriladi.
- Aksiyadorlar taqdim etiladigan axborot (materiallar) bilan jamiyat binosida tanishib chiqishlari mumkin.
- Aksiyadorlarni ro'yxatga olish 2023-yil 21-iyun kuni soat 09:00dan 10:00ga qadar davom etadi.
- Yig'ilishga aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bilan, vakillar ishonchnoma bilan kelishlari so'raladi.
- Telefon: (66) 222-31-32, (66) 221-33-60.**  
**Email: samarqandkonserva@inbox.uz**  
**Jamiyat kuzatuv kengashi.**



## “NURLI-ZAMIN ESM”

sihatgohi sizni chorlaydi!

**Nurobod shaharchasida joylashgan “NURLI-ZAMIN ESM” sihatgohi radonli va ma'danli suv bilan davolaydi. Sihatgohda asab tizimi, yurak qon-tomir, harakat-tayanch, teri kasalliklari bilan xastalangan dam oluvchilar sog'lomlashtiriladi.**

Bundan tashqari, maskanda fizioterapiya, parafin-ozokerit, radonli vanna, qadimiy tibbiy davolash uslubi, toshli issiq yo'lakcha, yog'och bochkada asal surib davolash, badantarbiya, uqalash, giyohlardan tayyorlangan damlamalar, parhez ovqatlanish yo'lga qo'yilgan. Yotoqxona, raqs va sport maydonchalari dam oluvchilar xizmatida.

Sihatgoh rahbari Salohiddin Ergashev, oliy toifali vrach-kardiolog Mamat Norqulov, o'z ishing ustalari hamshira Muxlisa va massajchi Islomjonlarning xizmatidan hamma xursand.

**Radonli suv sog'lom hayot manbaidir.**  
**Sizlarni “NURLI-ZAMIN ESM” sihatgohida kutamiz.**  
**Murojaat uchun telefonlar:**  
**(90) 470-76-06, (95) 500-76-06, (93) 720-76-06.**

Xizmatlar litsenziyalangan.

## JAMOAT FONDI NNTlarga 60 MILLION SO'MGACHA GRANT AJRATADI

**Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi «Inson huquqi va erkinliklariga amal qilish har bir shaxsning qadr-qimmatini e'zozlash, huquq va manfaatlarini ta'minlash, ma'naviy-axloqiy bilimlarni oshirish, oilada ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlari faolligini oshirish» mavzusida ikkinchi davlat grantini ajratish uchun tanlov**

### E'LN QILADI

Tanlovga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining quyidagi maqsadlarni nazarda tutuvchi ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalari qabul qilinadi:

- jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari va mulqot madaniyatini yuksaltirish hamda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-gumanitar sohada insonparvarlik ruhini kuchaytirish;

- davlat organlarida murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, «Davlat organlari xalq xizmatida» shiori ostida jamiyatda huquqiy madaniyatni va aholining huquqiy ongini yuksaltirishga, qonunga hurmat, huquqbuzarliklarga murosasizlik tuyg'usini kuchaytirishga ko'maklashish;

- oilaviy ajrimlar, noqonuniy va erta nikohlar, o'z joniga qasd qilish, giyohvandlikning oldini olish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvonga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish;

- salbiy xulq-atvoriga moyil bo'lgan yoshlar va ayollarning ma'naviy-axloqiy profilaktikasini hamda jamiyatga moslashishini kuchaytirishda NNT, o'zini o'zi

boshqarish organlari, ta'lim va tibbiyot muassasalarining ijtimoiy sherikligini yuksaltirish;

- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish, muqaddam sudlangan, uyushmagan, tarbiyasi og'ir yoshlarning jamiyatga qayta ijtimoiy integratsiyasiga (tiklanishiga) ko'maklashish;
- «Mustaqillik, eng avvalo huquqdir», «Adolat – qonun ustuvorligida», «Aholi murojaatlari –doimiy e'tiborda» shiorlari ostida qonun hujjatlarining ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmlarini o'rnatish.

### Davlat granti ajratish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

1. Tashkilot rahbari tomonidan imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan kuzatuv xati.
2. Viloyat Kengashi huzuridagi jamoat fondining [https://t.me/samarqand\\_jamoat\\_fondi](https://t.me/samarqand_jamoat_fondi) telegram kanalida joylashtirilgan shaklda to'ldirilgan davlat granti loyihasi uchun ariza.
3. Oxirgi o'zgartish va qo'shimchalar bilan davlat ro'yxatidan o'tgan Nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining Ustavi (Nizomi) nusxasi.
4. Tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi.

5. Agar loyihani amalga oshirish litsenziyalanadigan faoliyatni talab qilsa, unda litsenziyaning nusxasi.
  6. Manfaaddor davlat va jamoat tashkilotlarining tavsiya hamda qo'llab-quvvatlash xatlari.
- Bitta loyiha uchun ajratiladigan grant miqdori 60 million so'mgacha.

### Hujjatlar 2023-yil 15-maydan 15-iyungacha har kuni (dam olish va bayram kunlaridan tashqari) soat 9:00 dan 18:00 gacha qabul qilinadi.

Hujjatlar quyidagi manzilga - xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi nomiga «O'zbekiston pochta» orqali yuboriladigan muhrlangan konvertlarda (A4 formatda) quyidagi manzil bo'yicha qabul qilinadi: Samarqand shahri, Spitamen shohko'chasi, 159-«a»- uy manziliga «Nodavlat notijorat tashkilotlari va Do'stlik uyi» binosi (110-xona) deb yuborilishi shart.

Hujjatlarni taqdim etish shartlari va naminallari bilan Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining [https://t.me/samarqand\\_jamoat\\_fondi](https://t.me/samarqand_jamoat_fondi) telegram rasmiy kanalida tanishish mumkin.

**Ma'lumot uchun telefonlar:**  
**(55) 701-35-95, (93) 341-13-31.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Nurmuxamedov Muxiddin Pirmatovichga (2021-yil 6-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Imamov Fayzidin Shamsiyevichga (2020-yil 14-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.**

### BEKOR QILINADI

Fuqaro Sadiyev Umurzokga qarashli Samarqand tumani Qoziariq mahallasida joylashgan uy-joy uchun berilgan №885790700 raqamli kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\*\*\*

Samarqand shahridagi «DALER DEVELOPMENT» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli Samarqand shahri Sarbadorlar mahallasi, Sarbadorlar ko'chasi, 2-manzilda joylashgan ma'muriy bino va ishlab chiqarish sexi hamda 20 (yigirma) ta savdo do'koni binosi uchun 2016-yilda berilgan kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

## TANLOVDA QATNASHING!

### O'ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI QUIYIDAGI KAFEDRALAR BO'YICHA BO'SH LAVOZIMLARGA TANLOV E'LN QILADI:

#### Kafedra professori lavozimiga:

1. “Pedagogika” kafedrasida – 1 ta o'rin.

#### Kafedra dotsenti lavozimiga:

1. “O'zbek tili va adabiyoti, ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida - 1 ta o'rin (filologiya mutaxassisligi bo'yicha 1 ta).
2. “Aniq fanlar” kafedrasida – 3 ta o'rin (matematika mutaxassisligi bo'yicha 1 ta, informatika mutaxassisligi bo'yicha 1 ta, fizika mutaxassisligi bo'yicha 1 ta).
3. “Tabiiy fanlar” kafedrasida – 1 ta o'rin (biologiya mutaxassisligi bo'yicha).
4. “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
5. “Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida – 1 ta o'rin.
6. “Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi” kafedrasida - 1 ta o'rin.
7. “Musiqqa ta'limi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
8. “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” kafedrasida - 1 ta o'rin.
9. “Umumtexnika fanlari va texnologiya” kafedrasida – 1 ta o'rin.

#### Kafedra katta o'qituvchisi lavozimiga:

1. “Rus tili o'qitish metodikasi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
2. “Xorijiy tillar” kafedrasida - 1 ta o'rin (ingliz tili mutaxassisligi bo'yicha).
3. “O'zbek tili va adabiyoti, ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida – 2 ta o'rin (filologiya mutaxassisligi bo'yicha 1 ta, tarix mutaxassisligi bo'yicha 1 ta).
4. “Aniq fanlar” kafedrasida – 2 ta o'rin (matematika mutaxassisligi bo'yicha 1 ta, informatika mutaxassisligi bo'yicha 1 ta).
5. “Tabiiy fanlar” kafedrasida – 1 ta o'rin (biologiya mutaxassisligi bo'yicha).
6. “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
7. “Sport turlarini o'qitish metodikasi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
8. “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
9. “Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida – 1 ta o'rin.
10. “Pedagogika” kafedrasida – 1 ta o'rin.
11. “Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
12. “Musiqqa ta'limi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
13. “Umumtexnika fanlari va texnologiya” kafedrasida – 1 ta o'rin.

#### Kafedra assistenti lavozimiga:

1. “Rus tili o'qitish metodikasi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
2. “Xorijiy tillar” kafedrasida -3 ta o'rin (ingliz tili mutaxassisligi bo'yicha 1 ta, nemis tili mutaxassisligi bo'yicha 1 ta, fransuz tili mutaxassisligi bo'yicha 1 ta).
3. “O'zbek tili va adabiyoti, ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida – 3 ta o'rin (filologiya mutaxassisligi bo'yicha 1 ta, geografiya va iqtisodiyot bilim asoslari mutaxassisligi bo'yicha 1 ta, kimyo mutaxassisligi bo'yicha 1 ta).
4. “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
5. “Sport turlarini o'qitish metodikasi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
6. “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasida - 1 ta o'rin.
7. “Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida – 1 ta o'rin.
8. “Pedagogika” kafedrasida – 1 ta o'rin.
9. “Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
10. “Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
11. “Musiqqa ta'limi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
12. “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” kafedrasida – 1 ta o'rin.
13. “Umumtexnika fanlari va texnologiya” kafedrasida – 1 ta o'rin.

#### Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- institut rektori nomiga ariza;
- xodimlar hisobi bo'yicha shaxsiy varaqa;
- oliy ma'lumot, ilmiy daraja haqida-gi diplomlarning nusxalari;
- ilmiy unvoni haqidagi attestatning nusxasi;
- ilmiy va uslubiy ishlarning ro'yxati;
- malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma;
- xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar nusxasi (mavjud bo'lsa).

**Hujjatlar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida quyidagi manzilda qabul qilinadi: Samarqand shahri, Spitamen shohko'chasi, 166-uy.**

## “Musorchi” deyishga uyalish kerak

**Talabaman. Oraliq nazorat bo'lgani uchun biroz barvaqtroq o'qishga otlandim. Erta-lab bekatga keldim. Atrofga nazar soldim – obodonlashtirish xodimi bekat atrofi, ko'cha chetlarini supurardi.**

Ayol ko'cha chetiga tashlab ketilgan pista po'choqlariyu ichimlik idishlarini tozalayapti. So'ngra bekat atrofini supurdi. O'yab qolaman: bularni tashlamasak, uning yumushi biroz kamayarmidi. Shu vaqt avtobus keldi...

Xayollarim hamon sovuqda shahar tozaligini, obodligini ta'minlayotgan xodimlarda.

Afsuski, ularning zahmatli mehnatini qadrlamaymiz. Nainki qadrlamaymiz, ba'zan ularga nisbatan past nazar bilan ham qaraymiz.

Yaqinda xiyobon bo'yab o'qishga ketayotgandim.



Atrofimda ketayotgan ota-bolaning suhbatini qulog'imga chalindi. Bola otasidan sal narivoqda xazonlarni supurayotgan, chiqindilarni xaltalarga joylayotgan obodonlashtirish xodimini ko'rsatib, uning kasbini so'radi. Ota

esa ayolga qaradi-yu, farzandiga “Umi? U musorchi”, deya javob berdi. Bu gap o'sha ayolga ham eshitildi. Ayol qizarib, yerga qaraganicha, yumushini bajarishda davom etdi.

Xo'sh, sizningcha haqiqiy “musorchi” kim? Atrof ozodaligi yo'lida hali quyosh chiqmasdan, qishning sovug'iyu yozning jazirasida halol mehnati bilan pul topayotgan insonlarni yoki atrofga har xil chiqindilarni tashlab ketadigan sizni bizmi?

Aksariyat mamlakatlarda bu kasb egalari ish ham qolmayapti. Masalan, Yaponiyada maktablarning aksariyatida farroshlar ishlamaydi, o'quvchilar darsdan keyin guruhlarga bo'lingan holda sinxonani, yo'laklarni, hojatxonani tozalaydi. 12 yillik maktab davrida tozalik vaqti - o'quvchilar hayotining ajralmas qismi bo'lib kelmoqda. Yapon xalqining yoshu qarisi atrofda ko'ringan chiqindini hech ikkilanishsiz tozalab ketaveradi. Ular uchun bu sharaf.

Biz ham tozalik, ozodalik borasida yapon xalqidan o'rnak olishimiz kerak.

Surayyo XOLBOYEVA.



## Ravshan muallim

**Asl muallim o'zining kamtarligi, fidoyiligi bilan ajralib turadi. Bunday insonlar na-faqat maktab jamoasida, balki o'quvchilar orasida ham hurmat-e'tiborga sazovor bo'ladi. Geografiya fani o'qituvchisi Ravshan Xalilov mana shunday muallimlardan biri.**

R.Xalilov 1963-yil Urgut tumani-dagi Ravot qishlog'ida tug'ildi. O'rta maktabni tugatib, Samarqand davlat universitetining geografiya fakulteti-ga o'qishga kirdi. U talabalik yillarida qunt bilan bilim oldi. Unga taniqli olimlar – professor Mardon Umarov, dotsent G'aybulla Ashurov, Maryam Hoshimova, Alijon Abdulqosimov kabi ustozlar saboq berdi. Yosh Ravshan turli ilmiy konferensiyalarda faol qatnashdi, universitet gazetasi sahifalarida uning geografiya faniga oid maqolalari chop etilib turdi.

Universitetni a'lo baholarga bitirgan Ravshan Xalilov 1985-yil Urgut tumani-dagi 81-o'rta maktabda geografiya fanidan dars bera boshladi. U qisqa vaqt ichida o'quvchilarning sevimli “Ravshan muallim”iga aylandi.

Oilaviy sharoit taqazosi bilan R.Xalilov tuman markazidagi 35-o'rta maktabga ishga o'tdi va bu maskanda to hozirgi kungacha yosh avlodga ta'lim-tarbiya berib kelmoqda.

Ravshan Xalilov chin ma'noda haqiqiy o'qituvchi, - deydi ushbu maktab direktori o'rinbosari Nizom Xolliqov. – Men va tengqurlarim o'quvchilik yillarimda Ravshan domlaga havas va taqlid qilib o'qiganmiz. U kishidan odamlarga muomala qilish, hammaga hurmat bilan qarash, toza va ozoda kiyinish, o'z kasbiga fidoyilikni o'rgandik.

Ravshan aka xosson san'atkor hamdir, - deydi maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Norxol Bo'riyeva. – U kishi tor, tanbur, rubob, doira, sato kabi cholg'u asboblarni mahorat bilan chaladi. “Ushshoq”, “Gulizorim”, “Mudin”, “Segoh” kabi mumtoz qo'shiqlarni mahorat bilan ijro etadi. Shu bois uning san'at sohasidagi iqtidorli shogirdlari ham talaygina.

Salkam 40 yillik samarali pedagogik faoliyatida R.Xalilov ko'plab shogirdlar yetishtirdi. Ular orasida Abdulkhalkim Xushvaqto'v kabi fan doktori, Farrux Axchayev singari fan nomzodlari bor. Bugun ustozning shogirdlari turli kasblarda yurt ravnaqi uchun mehnat qilib kelishmoqda.

Ravshan aka oqil oila bekasi, turmush o'rtog'i Feruzabonu opa bilan besh nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Bugun ustoz 24 nafar nabiraning sevimli bobosi.

Samimiy, mehribon, tajribali ustozning hayot yo'li kelajak avlodga ibratdir. Ustozning keyingi pedagogik faoliyatiga omad va muvaffaqiyat tilaymiz.

**Abdusami SAMADOV, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.**

## O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi huzuridagi “Mahorat maktabi” tinglovchilari uchun mashg'ulotlar bahs-munozaralarga boy, amaliy jarayon bilan o'tkaziladi.



**Ko'cha-ko'y, bozor, gavjum joylarda chog'roqqina do'konchalar orqali bir zumda tayyorlanadigan fastfud sotilayotganligi, savdoning avjidaligi, xaridorlarning asosiy qismi yoshlar ekanligiga ko'zimiz tushadi.**

## Fastfudning organizmga ziyoni bor



Yaqinda ana shu tez tayyorlanadigan taomning salomatligimiz uchun foydasidan ko'ra zarari ko'pligidan xabar topdim. Olimlarning fikricha, fastfud iste'mol qiladigan kishilar kayfiyatida tushkunlik holati 40 foizga oshar ekan. Fastfudxo'rlar boshqalarga qaraganda 1,4 baravar ko'proq tushkunlikdan aziyat chekisharkan. Ortiqcha vazni-ku gapirmasa ham bo'ladi.

Yoshlar - o'quvchi va talabalarning sevimli taomiga aylangan fastfudning ana shunday zararli ekanligi nega bizni o'ylan-tirmaydi? Uning tarkibida juda ko'p tuz, shakar va kimyoviy qo'shimchalar mavjud. Organizm uchun kerakli bo'lgan oqsil, vitamin va minerallar yetarli emas.

Hazm bo'lishi ham qiyinligini hisobga olsak, bu taomning zarari ko'pligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Shunday ekan, undan voz kechishimiz kerak.

Yulduz SAMADOVA.

## Piyodalar yo'lagi "parkovka"mi?

**Keyingi yillarda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida respublikamizning barcha hududlarida alohida piyodalar yo'lagi va veyo'ylaklar qurilmoqda. Albatta, bu piyodalarga qulaylik yaratish, aholining yo'llarda bexavotir yurishlari uchun qilingan.**

Biroq piyodalar yo'laklari atrofidagi manzaralar kishi dilini xira qiladi. Piyodalar yo'lagini avtoulavlarning to'xtash joyiga aylantirib olishgan. Oqibatda piyodalar transport harakatlanayotgan yo'ldan yurishga majbur bo'lmoqda. Shuningdek, jamoat mulkiga nisbatan bepisandligi sabab qurilayotgan piyodalar yo'lakchalarining holati va sifati o'z muddatidan ancha oldin buzilib bormoqda.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari va maktablar atrofi avtoulavlar qo'yiladi-



gan joyga aylandi. Bu esa uzundan-uzun tirbandliklarga sabab bo'lyapti o'quvchi-talabalarning ta'lim muassasalariga kirib chiqishida noqulayliklar tug'dirmoqda. Hatto ayrim haydovchilarning mashinasini piyodalar yo'lagiga qo'yib ketganiga guvoh bo'lganmiz.

Husan OLIMOV.

## Reklamalarning mentalitetimizga ta'siri qanday?

**Asalning ham ozi shirin, degan naql bor. Bugungi kunda do'konlar, kafe, restoranlar peshtoqida o'zbekcha nomlarni ko'rishimiz amrimahol bo'lib qoldi. Ba'zi do'konlar yonidagi reklama afishalari milliyatimizga to'g'ri kelmaydigan suratlar bilan to'lganligi kishi ko'nglini xira qiladi. Afsuski, bunday reklamalar faqat ko'chadagi afishalar bilan cheklanib qolmagan. Har qadamda uchraydi.**

Televideniya orqali beriladigan reklamalar ancha odimlab ketgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir tadbirkor o'z mahsulotini xaridorga reklama qilish orqali tanishtirishni xohlaydi, albatta. Lekin bu ularning mahsulotini istalgan ko'rinishda reklama qilish huquqini bermaydi. Demochimanki, oila davrasida televizor ko'rib o'tirgan paytingiz odamning g'ashiga teguvchi reklamalar kam deysizmi? Yana ularning takror-takror qo'yilishi,

davomiylikni aytmaymizmi?

2022-yil 9-sentabrda kuchga kirgan “Reklama to'g'risida”gi Qonunga ko'ra, telekanallardagi reklamalar 1 soatda 20 foizdan, 1 sutkada 15 foizdan oshmasligi kerak. Davomiylik 10 daqiqadan oshmaydigan ko'rsatuvlarda esa reklama qo'yilmaydi. Qonunga ko'ra, taqiqlangan mahsulotlarni reklama qilish jinoyi javobgarlikka sabab bo'ladi. Masalan, energetik ichimliklar, alkogol va tamaki mahsulotlarini reklama



qilish taqiqlangan.

To'g'ri, qonun qabul qilingandan so'ng reklamalar qaysidir ma'noda tartibga olindi. Lekin bu reklama muammosi to'liq bartaraf etildi, degani emas. Qonunga qo'shimcha tarzda milliy mentalitetimizga, madaniyatimizga to'g'ri kelmaydigan reklamalarga cheklolvar qo'yish bandini qo'shish kerak, menimcha. Reklama roliklarining takror-takror qo'yilishi farzandlarimiz tarbiyasi-ga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida o'yab ko'rganmisiz?

Munira MAMATKARIMOVA.

**Bugun voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida energetik ichimliklarga talab ortyapti. Ushbu ichimliklarni ichish nafaqat o'smirlar, balki hali balog'at yoshiga yetmagan maktab o'quvchilari o'rtasida ham ommalashgan.**

## Energetik ichimliklar zararli

Energetik ichimlikni haddan ziyod ko'p iste'mol qilish insonning nafaqat salomatligiga, balki ruhiy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ichimliklarni kimdir foydali, insonning quvvatini oshiradi desa, yana kimdir bu ichimlikka ruju qo'yimoq xuddi g'iyohvand kimsaga o'xshatib qo'yadi, deyishadi. Mutaxassislarning aytishicha, ushbu “quvvatbaxsh” ichimliklar tarkibida inson organizmiga zararli 20 xildan ortiq moddalar bor.

Ma'lumotlarga ko'ra, “quvvatbaxsh” ichimliklar ilk bor 1960-yilda Yaponiyada dori vositasi sifatida yaratilgan. Keyinchalik Yevropa va AQSHni “zabt etgach”, tadbirkorlar bu mahsulotni ommalashtirish uchun tarkibiga bir qancha kimyoviy moddalarni qo'shgan. 2014-yilga kelib Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'smirlar o'rtasida energetik ichimliklar ko'p iste'mol qilinayotganligi yuzasidan xavotirli bayonot bilan chiqdi.



2017-yilda esa AQSHda 16 yoshli o'smirlarning o'limiga ko'p miqdorda iste'mol qilingan energetik ichimlik sabab bo'lganligi taxmin qilingan.

Ushbu ichimlikni kuniga 1,5-2 litrdan ichgan kishi eshimek yurak kasalligini orttirib oladi.

Insonga vaqtinchalik tetiklik baxsh etadigan “quvvat beruvchi”larning o'rniga yillar mobaynida kishilar organizmiga foydali bo'lib kelayotgan, tabiiy usulda tayyorlanadigan o'rik va boshqa mevalar sharbati ichilsa, ayni muddao bo'ladi.

Marjona PARDAYEVA.

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 644 nusxada chop etildi. Buyurtma 287. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**O'.XUDOYBERDIYEV.**


**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda

